




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZ  
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

OZARBAYJON RESPUBLIKASI  
MILLİY İLMLİAK AKADEMİYASI  
NİZOMİY GANJAVİY NOMİDİDAGI  
ADABIYOT İNSTITUTI  
NASİMIY NOMİDİDAGI  
TILSHUNOSLIK İNSTITUTI

O'ZBEK VA OZARBAYJON FILOLOGİYASINING DOLZAR  
ÖZZBƏK VƏ AZƏRBAYCAN FILOLOGİYASININ AKTUAL  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman  
MATERIALLARI  
(15/16-aprel, 2024-yıl, Boku)  
I jild



ØZBEK VA AZARBAYCAN FILOLOGİYASININ AKTUAL MASALARI  
O'ZBEK VA OZARBAYJON FILOLOGİYASINING DOLZARB MASALARI

I JILD





**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI  
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**OZARBAYJON RESPUBLIKASI  
MILLIY IMLAR AKADEMIYASI  
NIZOMIY GANJAVIY NOMIDAGI  
ADABIYOT INSTITUTI  
NASIMIY NOMIDAGI  
TILSHUNOSLIK INSTITUTI**

**O'ZBEK VA OZARBAYJON FILOLOGIYASINING DOLZARB  
MASALALARI  
ÖZBƏK VƏ AZƏRBAYCAN FİLOLOGİYASININ AKTUAL  
MƏSƏLƏLƏRİ**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman  
MATERIALLARI  
(15/16-aprel, 2024-yil, Boku)**

**I jild**

**BOKU- 2024**

Ya’ni endi Tabibiy soqiynomalarida ijtimoiy-falsafiy, tasavvufiy mazmun aynan soqiya murojaat orqali yoritiladi.

XIX asr o‘zbek adabiyotida ijod qilingan soqiynomalarda asar mazmuni lirik qahramon his-tuyg‘ularining tabiatini bilan bog‘liq. Jumladan, Tabibiy qalamiga mansub quyidagi soqiynomada shoirning ichki tug‘yonlari “soqyo”, “soqiy” murojaatlari orqali nido san’ati vositasida yuzaga chiqqan:

Ketur, soqyo, bodayi lolafom,

Bo‘lay no‘sh etib, oni mast-u xirom...

Yoki yana bir o‘rinda shunday qo‘llaniladi:

Ketur, soqiy, qadahni g‘amzudodur,

Ki, g‘amlar kasrati jonim olodur...

Shoir ushbu soqiynomada insonni moddiy dunyo tashvishlarini, g‘amlarini yengib o‘tishga chorlaydi. O‘tayotgan umrni g‘animat bilish, uning har lahzasini quvonch bilan qarshi olishga undaydi:

Ketur, soqiy, sharobi arg‘uvoni –

Ki, ko‘nglumga sharob bergay safoni...

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, Tabibiy ushbu soqiynomada hayotiy xulosalarini ham ifoda eta olgan. Shoirning teran tafakkuri, iqtidori, mahorati ushbu betakror ijod namunasi vositasida yana bir bora namoyon bo‘lgan, yangi qirralarini kashf etgan.

Adabiy jarayondagi har qanday yangilanish an’analar zaminida paydo bo‘ladi. Har bir ijodkor o‘zidan keyingi shoirlar ijodiga ham, zamondosh shoirlar ijodiga ham ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatmasdan qolmaydi. Shu bilan birga bu ta’sirlar, adabiy aloqalar shoir ijodiy faoliyatida ro‘y beradigan novatorlikka – yangilikka sabab bo‘lishi mumkin. Ijodiy jarayonda har qanday shoir o‘zga san’atkor ta’sirini, ayniqsa, ustoz ijodkorlar ta’sirini his etmay iloji yo‘q. Adabiy izdoshlik va ta’sir masalasi shoirning salaflari g‘azallariga muxammas bog‘lash mahoratida ham yaqqol ochiladi. Adabiyotimiz tarixini kuzatadigan bo‘lsak, hech bir ijodkor Tabibiy singari 80 dan ortiq ijodkor g‘azallariga muxammas bog‘lamagan. Uning “Hayratul ushshoq” qo‘lyozma devonida Lutfiy, Navoiy, Husayniy, Fuzuliy, Munis, Ogahiy kabi mashhur so‘z san’atkorlari qatorida ijodi bizga unchalik tanish bo‘lman Nasib, G‘aribiy, Boqiy, Avniy, Noiliy, Laylo, Zevar, Fitnat, Sham‘iy, Mohir, Muhibiy, Somiy, Quddusiy, Adliy kabi shoirlar g‘azallariga bog‘langan taxmislari mavjudligi fikrimiz dalilidir. Ahmad Tabibiy ko‘plab turkiyzabon va forsiyzabon so‘z san’atkorlari badiiy mahoratidan ilhomlangan. Shoir ijodini tahlil etar ekanmiz, uning ijodkor sifatida shakllanishida, ayniqsa, Navoiyning ijodiy merosi kuchli ta’sir etgani kuzatiladi. Tabibiyning ko‘plab turkum asarlari aynan Navoiy asarlariga o‘xshatmalar tarzida yozilgan. Bu hol shoirning buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodiga naqadar ixlosmand bo‘lganini ko‘rsatadi.

Xullas, Ahmad Tabibiy ijodida ozarbayjon shoiri Fuzuliy ijodidan ilhomlanish natijasida yangi janrlar: soqynoma va betakror muxammaslar yaratildiki, ushbu adabiy janrlar poetikasi va qiyosiy tadqiqi adabiyotshunosligimizning galdagi vazifalaridandir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2002.-560 b.
2. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati – Toshkent: Akademnashr, 2010. – 400 b.
3. M. Asadov. Soqynoma: tarix va poetika. – Toshkent: “Tafakkur”, 2020. – 350b.

## **MUHAMMAD FUZULIY: “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONIDA JANRLAR MASALASI**

**Oybarchin Abdulhakimova,  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,**  
**Yulduz Abdulhakimova,  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti**

**ANNOTATSIYA.** Maqolada atoqli ozarbayjon mutafakkiri Muhammad Fuzuliyning “Layli va Majnun” dostonida qo‘llanilgan janrlar haqida so‘z yuritiladi. Fuzuliy doston yaratishda ruboiy, soqynoma, g‘azal, murabba’ kabi bir qancha janrlardan unumli foydalanganligi, shoirning “Layli va Majnun” dostoni o‘zidan avval yaratilgan ishq qissalariga o‘xshash va farqli tomonlari misollar orqali dalillangan.

**АННОТАЦИЯ.** В статье говорится о жанрах, использованных в эпосе известного азербайджанского мыслителя Мухаммада Физули “Лейли и Меджнун”. Удачное использование Физули в создании эпоса Физули нескольких жанров, таких как рубай, сокинама, газель, мурабба, на примерах доказывается сходство и отличие эпоса поэта “Лейли и Меджнун” от любовных историй, созданных до него.

**ANNOTATION.** The article talks about the genres used in the famous Azerbaijani thinker Muhammad Fuzuli's epic “Layli and Majnun”. Fuzuli's successful use of several genres, such as rubai, sokinama, ghazal, murabba', in the creation of Fuzuli's epic, the similarities and differences of the poet's epic “Layli and Majnun” from the love stories created before him are proved through examples.

**Kalit so‘zlar:** doston, ruboiy, soqynoma, Layli, Majnun.

**Ключевые слова:** достон, рубаи, сокинама, Лейли, Меджнун.

**Key words:** doston, ruba'i, sokinama, Layli, Majnun.

Alisher Navoiy “Xamsa”si yaratilgandan keyin oradan yarim asr vaqt o‘tmay, xamsanavislik an’anasidan uzoqlashish holatlari uchray boshladi. Bu xususiyat, usmonli va ozariy turklar uchun xos ekanligi bilan xarakterlanadi. “Qayd etmoq lozimdirki, turk adabiyotida “Xamsa” yozmoq an’anasi birmuncha farqli inkishof etdi va turk shoirlari o‘z “Xamsa”laridagi dostonlar mavzularining o‘zgachaligi bilan Nizomiydan farqlandilar” [1, 80]. Endi bu davrga kelib, turkiy adabiyotda “Xamsa” dostonlari mavzularini o‘zgartirish, vaznlardan chekinish, dostonlar tarkibiga yangi shakl va janrlarni kiritish tamoyili paydo bo‘la boshladi. “... aytish mumkinki, Navoiy forsiyzabon shoirlarga turkiy tilda “Xamsa” yozish mumkinligini isbotlab bergen va murakkab adabiy vazifani ado etib bo‘lgandan keyin, turk dunyosi endi bemalol an’anaviylikdan chekinib, o‘zi istagan shaklda beshlik yaratish imkoniga ega bo‘ldi” [2,65].

Aynan shu fikrni Muhammad Fuzuliyning “Layli va Majnun” dostoniga nisbatan ham aytish mumkin. Fuzuliy dostoni Sharq dostonchilik an’analariga muvofiq yozilgan bo‘lsa-da, biroq ozarbayjon shoiri o‘z dostonini masnaviyining o‘zida yozish bilan chegaralanib qolmay, unga bir qator janrlarni ham qo‘shadi. Shoirning o‘zi bu haqda 9-bobda, ya’ni “Soqiy bilan bo‘lgan suhbat”da shunday deydi:

Gəh taərzi- qəsidə əylərəm saz,  
Şəhbazini olur büləndpərvaz.

Gəh də'bi –qəzəl olur şüarım,  
Ol də'bə rəvon verər qərorim.  
Gəh məsnəviyə olub həvəsnak  
Ol bəhrdə istərəm dùri-pak.[3,34]

Fuzuliy yuqorida bayon etganidek, o‘zining ijodiy imkoniyatlariga baho beradi. Ya’ni yozgan qasidasi parvozi baland burgut kabi soz va yoqimli ekanligi, g‘azal bitishni maqsad qilganida esa fikri yana-da ravon bo‘lmoqligi va masnaviy yozishni istar ekan, ijod ummonidan dur kabi pok so‘zlarni terishni niyat qiladi.

Fuzuliy dostoni nasriy debocha bilan boshlanadi. Debocha 238 so‘zdan iborat bo‘lib, unda shoir Layli va Majnun afsonasini bayon etishda Allohdan kuch va g‘ayrat so‘raydi. Debocha saj’ usulida yozilgan va bayon etish uslubiga ko‘ra Alisher Navoiy nasriy asarlari, xususan, “Mahbubul qulub” va “Munojot”ni eslatadi.

Salaflar dostonlari singari Fuzuliyning “Layli va Majnun” dostonidagi boblarga ham sarlavha qo‘yilgan, biroq Navoiy dostonidan farq qilib, unda baroati istehlol yetakchilik qilmaydi, har bir bob “Bu...” so‘zi bilan boshlanib, -dir

bog‘lamasi bilan yakunlanadi. Dastlabki bob ham sarlavhaga ega: “Bu, həzrəti-izzətdən həmd ilə istimdadi-mətalibdir və asari-şükr ilə istid’ayı-sətri-laibdir”.

Doston tarkibiga masnaviydan tashqari ruboiy, g‘azal, soqiynoma, murabba’, qasida kabi janrlar ham kiritilgan bo‘lib, ular dostonning ta’sirchanligini oshirib, fikrning oson tushunilishini ta’milagan.

Doston boshlanmasida 3 ta ruboiy keltirilgan. Ruboilar bir-birini to‘ldirish asnosida, ayni paytda ma’noviy jihatdan dostonning asl mazmunini ochib berishga ham xizmat qiladi. Ilk ruboiy an’anaviy hamd mazmunida bo‘lib, quyidagi misralardan iborat:

Ey nə’səti –hüsni- eşqə tə’sir qılan!

Eşqifə binayi- kövni tə’mir qılan!

Leyli səri- zülfini girekdir qılaù!

Məsnuni- həzin boynina zənsir qılan!

Shoir ruboiyda Allohga munojot qilib, shunday deydi: Sen ishqing bilan husnlar na’shasiga ta’sir qilding. Va bu Ishq bilan qalblar binosini ta’mir qilding, go‘zallashtirding, pokladning. Va Laylining (yoki Laylidek minglab ma’shuqlarning) zülfini zanjir qilib, Majnunlarning bo‘yniga ishq savdosini osding, qalbiga tushgan ishq dardi uchun Yaratganga murojaat qiladi.

Turk olimi Burhan Basharslan “Fuzûl’nin Leylâ ve Mecnûn Mesnevisi – Dibaçe” nomli maqolasida yuqoridagi ruboyni quyidagicha sharhlaydi: “Birinchi ruboiyda shoir koinotning ishq bilan yaratilganligi haqida aytar ekan, Haqdan yorining vaslini tilab yolvoradi. Menimcha, bu ruboiyda husn va ishq tushunchalaridan husn Layliga, ishq esa Majnunga ishora qiladi”. [4]

Tutsam tələbi -həqiqətə rahi- məsaz,

Əfsanə bəhanəsilə orz etsəm raz,

Leyli səbəbilə vəsfəm etsəm ag‘az,

Məsnun dili ilə etsənə izhari- niyaz.

Navbatdagı ruboiyda esa Fuzuliy dostondan ko‘zlangan maqsadi haqida so‘zlaydi: “Talabgor bo‘lgan haqiqatimga yetishda majoz yo‘lini tutsam va bu afsona bahonasida o‘z rozimni arz qilsam. Laylini sababchi qilib Sening vasfingni boshlasam, Majnun tili bilan o‘z izhorimni bayon etsam”.

Ikkinci ruboyni Burhan Basharslan talqinida kuzatsak: “Fuzuliyning haqiqat talabida rah-i majoz tutishi nimani anglatadi? Shunday holat borki, haqiqat bor va bu haqiqat majoz orqali talab qilinadi. Menimcha, bu jumlada devon she’riyatiga xos ifoda yashiringan. Chunki nasriy qismdan ham tushunilishicha, Layli va Majnun ikki timsoldir. Layli – haqiqat timsoli, Majnun esa talabgorning timsoli”[5]. Ushbu sharhga qo‘srimcha qilib aytish mumkinki, Laylining husni orqali Alloh o‘z jamolini tajalliy etgan bo‘lsa, Fuzuliy Layli vasfini ta’riflar ekan, bevosita Allohnı

madh etgan bo‘ladi. Majnun tili bilan qilingan dil izhori aslida Layli orqali Allohga qaratilgandir.

So‘nggi ruboiyda shoir yana Allohga munojot qilib, dostonning ko‘zlagan maqsadini amalga oshirishini, iqbolini porloq etib, Laylining har bir so‘zini dilga yoquvchi qilishini va Majnunning so‘zini jonso‘z, jigarro‘z qilishini so‘raydi.

Dostonning dastlabki boblari masnaviy shakli bilan ibtido topgach, Payg‘ambarimiz me’rojiga bag‘ishlangan na’tdan so‘ng, na’t-qasida keladi. Qasida talmi’ san’ati asosida yozilgan bo‘lib, undan uch tilda: arab, fors va ozar tilida bitilgan baytlar o‘rin olgan. Hajman 19 baytdan iborat. Payg‘ambarimiz (s.a.v) vasfiga bag‘ishlanadi. Unda Rasulullohning Alloh tomonidan mo‘minlarga xabarchi qilib yuborilganliklari, u kishining panohida bo‘lganlarga zarar yetmasligi, Alloh U kishini azizlardan-da aziz qilib yaratgani haqida aytilsa, dostonning keyingi o‘rinlarida qasida forsiy tilda davom etadi. Unga ko‘ra, Iso (a.s) ham falakka chiqdi, biroq uning maqomi Muhammad (s.a.v)ning qadr-qiyomatichalik emas. U zot Me’rojga ko‘tarildilar. Bu daraja oldida Muso (a.s) chiqqan Tur tog‘ining qiymati qadrsizdir. Ibrohim (a.s)ga atab yoqilgan o‘tni o‘chirgan ham U zotning suvlari edi. Payg‘ambar shariatidan yuz o‘girmoq kufr, U zotdan o‘zgaga ergashmoq esa murtadlik belgisidir, deydi. Qasida Fuzuliyning U Zoldan rahm tilab, shafoat ila hojatini ravo qilishi haqidagi tilak-duosi bilan yakunlanadi:

Ya Mustəfa, Füzuliyi-möhtacə rəhm edüb,

İzhari-iltifat ilə qıl hacətin rəva.

Qasida qofiyalanish tizimi va qo‘llanilgan she’riy o‘lchov nuqtayi nazaridan dostonning asosiy shakli – masnaviydan farq qiladi. Unda aruz tizimining muzori’i musammani axrabi makfufi mahzuf vazni (afoyili va taqtii: maf’uvlu foilotu mafoiylu foilun, — V / — V — V / V — — V / — V — ) istifoda etilgan.

Doston tarkibida kelgan yana bir qasida Sulton Sulaymon Qonuniy ta’rifi keltirilgan bo‘lib, hajman 21 baytdan iborat. Qasida sulton madhiga bag‘ishlangan 10 bobga ilova tarzida berilgan. Shoir unda zamona sultonining tengsiz himmat sohibi, dinning chin panohi, orif, fozil, ulamolarning rahnamosi ekanligini aytar ekan, uni madh etmagan til armonda ekanligini ta’kidlaydi.

Ushbu qasida ham vazn nuqtayi nazaridan dostonda qo‘llanilgan asosiy she’riy o‘lchov chegaralaridan chiqadi: unda hazaj bahrining hazaji musammani solim (mafoiyun mafoiyun mafoiyun mafoiyun, V---/V---/V---/V---) vazni qo‘llanilgan.

Doston tarkibiga bitta soqiynoma ham kiritilgan bo‘lib, u 8 bobga ilova qilingan. Soqiynoma 62 baytdan iborat. Unda shoir soqiyya murojaat qilib, o‘zini sadaf, soqiyni esa yomg‘ir deb ataydi va Nizomiy, Navoiy kabi ulug‘larning nomlarini tilga olib, ular o‘zlari yashagan davr shohlarining nazariga tushganligini faxr bilan tilga oladi:

Bulmuşdi səfayi-dil Nizami,  
Şirvansəhə düşüb girami.  
Olmuşdu Nəvaiyi-süxəndon  
Mənzuri-şəhənşəhi-Xorasan.

(Mazmuni: pok qalbli Nizomiyga Shirvanshohning nazari tushdi. Navoiy suhandonligi bilan Xuroson shahanshohiga manzur bo'ldi.)

Soqiynama davomida Fuzuliy iztirob bilan endi bulardek go'zal so'z aytuvchi qolmaganligini, ular ulug' ijodkor sifatida doimo darveshlik hirqasini egnilaridan yechmaganliklarini e'tirof etadi. Shoir o'zini ularning davomchisi sanab, so'zni ustuvor bilib, egniga hirqa tashlashni niyat qiladi. So'zning ilohiy ekanligini ta'kidlab, "buning uchun menga har majlislarda adovat qilsalar ham, g'araz qilsalar ham men buni tahsin deb qabul qilaman", deydi:

Çün qalmadı, qalmadı fəsahət,  
Ərbabi-fəsahət içrə rahət.  
Ol taifə çəkdi xırqəyə baş,  
Halətlərin etməz oldular faş.  
Eylər həsəd əhli bağlayib kin,  
Təhsin əvəzinə nefyù nifrin.

Soqiynama masnaviy shaklida bitilgan bo'lib, vazn nuqtayı nazaridan ham dostonning asosiy she'riy o'lchoviga mos keladi.

Fuzuliyning dostonida 24 ta g'azal keltiriladi. Doston tarkibida keltirilgan har bir g'azal shoir fikrini isbotlab qolmay, dostonning umumiyy mazmunini ochishga ham xizmat qiladi. G'.Aliyevning ma'lumot berishicha, "Layli va Majnun" dostoni tarkibiga g'azallarning kiritilishi Ashraf Marog'iyan bosqlanadi. Fuzuliy ham o'z dostonida Ashrafning bu an'anasi davom ettiradi[6, 74].

Doston tarkibiga kiritilgan jami g'azallar 162 baytni tashkil etadi. G'azallarning 8 tasi Layli tilidan, 12 tasi Majnun tilidan, 2 tasi Fuzuliy tilidan va 2 tasi munojot g'azaldır.

Fuzuliy dostonining syujet tarkibiga 2 ta murabba' kiritilgan. Ma'lumki, murabba' janrining kelib chiqishi xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Turkiy adabiyotda bu janrni ilk marotaba Ahmad Yassaviyning ijodida ko'rishimiz mumkin. Undan so'ng Mashrab, Ogahiy, Avaz O'tar, Muqimiy kabi ijodkorlar bu janrda barakali ijod qilishdi.

Fuzuliy murabba'larining umumiyy hajmi 26 bayt. Majnunning tilidan keltirilgan murabba' "Bu, Məcnundan Leyliyə bir nameyi-itabamizdir və peyğami-şikayətəngizdir" bobiga ilova qilingan bo'lib, ramali musammani mahzuf (foilotun-foilotun-foilotun) vaznida bitilgan.

tadqiqotlar yaratish fursati yetdi” [9;99]. “Muhammad Yusuf Bayoniyning asarlari va devoni o’zbek mumtoz adabiyotimizni boyituvchi, XIX asr hamda XX asr boshlari Xorazm adabiy muhitini o’rganishda muhim manba sifatida adabiyotshunoslik, matnshunoslik va adabiy manbashunoslikda ilmiy tadqiq etilishi lozim bo’lgan asarlardan ekanligi bilan ahamiyatlidir” [10;79].

Muhammad Yusuf Bayoniyning hayoti va ijodi haqida Hasanmurod Laffasiyning “Tazkirayi shuaro” asaridan tashqari o’zining “Shajarayi Xorazmshohiy”, Bobojon Tarroh Xodimning “Xorazm navozandalari” asarlarida ham muhim ma’lumotlar berilgan va ularni o’rganish galdegisi vazifalardandir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Тазкираи шуаро. Абу Райхон Беруний номидаги шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди. 12651 39<sup>a</sup> варақ.
2. Бобожон Тарроҳ. Хоразм навозандалари. Урганч. 1992. 78 бет.
3. Бобожонов нусхасида 1923 йил қайд қилинган.
4. Лаффасий. Тазкираи шуаро. Абу Райхон Беруний номидаги шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди. 12651 39<sup>b</sup> варақ
5. Лаффасий. Тазкираи шуаро. Абу Райхон Беруний номидаги шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди. 9494 14<sup>a</sup> варақ
6. Лаффасий. Хива шоир ва адабиётчиларининг таржимаи ҳоллари. ЎзРФА Шарқшунослик институти асосий фонди 11499 рақамли қўлёзма 10<sup>a</sup> варақ.
7. Лаффасий. Тазкираи шуаро. Урганч. Хоразм. 1992.-Б.41
8. Исломова Г. Чақмоқли орзулар ижодкорлари. – Тошкент: ”Истиқлол нури”, 2014.79 бет
9. Жумахўжа Н. ва Адизова И. Сўздин бақолироқ ёдгор йўқдур. – Тошкент. 99 бет
10. Дўстова С. Баёний девонининг 1120 рақамли қўлёзмаси. Туркий халқлар филологиясида фундаментал тадқиқотлар ва инновацион технологиялар номли халқаро илмий амалий конференция. Нукус, 2022. 79 бет.
11. ЎзРФА Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди 6666 рақамли қўлёзма
12. ЎзРФА Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди 7082 рақамли қўлёзма
13. Юсупов Ю. Хоразм шоирлари. – Т.: “Бадиий адабиёт”, 1967. – Б.91
14. [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/4818](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4818)
15. [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/4819](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4819)
16. [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/4836](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4836)
17. [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/2375](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/2375)

## MUNDARIJA

### **I. Umumadabiy-madaniy, badiiy-estetik, nazariy-falsafiy muammolar**

<b>1. Nurboy Jabborov.</b> Turkiston jadid matbuotida millat va milliyat talqini.....	7
<b>2. Islamjon Yakubov.</b> Chingiz Aytmatov adabiy-estetik konsepsiysi.....	13
<b>3. Zebo Qobilova, Feruza Qurbonova.</b> Hikoyalarda folklor an'analari.....	22
<b>4. Zulfiya Pardayeva.</b> Zamonaviy o'zbek romani: poetika talqini va tadqiqi... <b>5. Mahbuba Sobirova.</b> Ta'lif-tarbiyada qadriyatlarning o'rni.....	26
<b>6. Salimaxon Mirzayeva, Feruzaxon Tillaboyeva.</b> Features and functions of riddle genres.....	30
<b>7. Gavhar Eshchanova.</b> "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining genezisi masalasi.....	34
<b>8. Saida Kurbanova.</b> Fojaviy dramada ijtimoiy muammolarning badiiy talqini (Shukrulloning "Unsiz faryodlar" dramasi misolida).....	40
<b>9. Sa'dulla Matyakupov.</b> Mumtoz lirik va epik she'riyatda dialogning badiiy vazifasi.....	44
<b>10. Umid Bekmuhammad.</b> Xorazmlik jadid ma'rifikatparvari Bekjon Rahmonning Bokuga safarlari.....	48
<b>11. Zebiniso Rasulova.</b> Ertaklardagi "g'aroyib buyum"lar va ularning g'aroyib xususiyatlari.....	53
<b>12. Aynur İbrahimova.</b> Azərbaycan xalq qəhrəmanlıq dastanı "Koroğlu"nun variantları.....	61
<b>13. Gülbəniz Babayeva.</b> Türkiyə satirik mətbuatının təşəkkülü və formalaşması (Osmanlı dönəmi).....	65
<b>14. Lalə Həsənova.</b> Didaktrik obrazdan mürəkkəb xarakterə doğru – biografik-xronikada siyasi liderin bədii portreti.....	75
<b>15. Zəhra Allahverdiyeva.</b> Nizami Gəncəvinin milli mənşeyini təhrif edənlərə cavab.....	87
<b>16. İradə Əliyeva.</b> Azərbaycanda ekologiya və ətraf mühitin mühafizəsi üzrə bibliografiyanın inkişaf ənənələri və xüsusiyyətləri.....	94
<b>17. Джамил Кулиев.</b> Развитие образования в Азербайджане в первой половине 20 века.....	103
<b>18. Munis Jo'rayeva.</b> Topishmoq janrining kelib chiqishi va miflar.....	111
<b>19. Şəbnəm Mirzəzadə.</b> Cədidizm dövründə ictimai-siyasi, ədəbi-mədəni mühit.....	118
<b>20. Akbar Jumanov.</b> Ijodkor shaxs va poetik mahorat talqinlari.....	123

<b>21. Muyiba Otamuratova.</b> Zamonaviy o‘zbek she’riyatida ayol ruhiyati tasviri.....	127
<b>22. Sevara Bekchanova.</b> Yoshlar ijodi adabiy suhbatlar misolida.....	130
<b>23. Sevara Bekchanova.</b> Munaqqidlar adabiy suhbatlarida davr she’riyatidan mulohazalar.....	134
<b>24. Zumradxon Teshaboyeva.</b> Prolog va epilogning asar kompozitsiyasidagi o‘rni (Abduqayum Yo‘ldosh asarlari misolida).....	137
<b>25. Hilola Raimova.</b> Ilhombaxsh manba.....	141
<b>26. Guljahon Soliyeva.</b> Ota siyosining badiiy talqini.....	144
<b>27. Nozima Asadullayeva.</b> Isajon Sultonning “Genetik” romanida milliy qadriyatlar talqin.....	148

## **II. O‘zaro adabiy ta’sir masalalari**

<b>1. Salidə Şərifova.</b> Şota Rustavelinin “Pələng dərisi geymiş pəhləvan” əsərinin şərq intibahina aid olması və türk folkloru əsasında yaradılması haqqında.....	153
<b>2. Islamjan Yakubov.</b> Poetik tafakkur va badiiy ifoda tarzi: mushtaraklik hamda o‘ziga xoslik.....	176
<b>3. Dilshod G‘ayipov.</b> O‘zbek va Ozarbayjon jadidchiligining mushtarak jihatlari xususida ba’zi mulohazalar.....	181
<b>4. Shahlo Botirova.</b> The interpretation of symbols in english and uzbek literary works.....	186
<b>5. Surayyo Eshonqulova.</b> Fuzuliy va Nodira lirikasining o‘ziga xos va mushtarak jihatlari.....	190
<b>6. San’at Sariyev.</b> Adabiy aloqalar va xalq eposi ( <i>O‘zbek va Ozarbayjon xalq qahramonlik eposi “Go‘ro‘g‘li” dostonlari misolida</i> ).....	194
<b>7. Faridaxon Karimova.</b> Fuzuliyning turkiy debochasi: an’ana va o‘ziga xoslik.....	198
<b>8. Nasiba Sabirova.</b> Xorazm va Ozarbayjon: tarixiy-madaniy aloqalar (Shimoliy dostonchilik maktablari).....	203
<b>9. Jamoliddin Jo‘rayev.</b> Nizomiy Ganjaviy va Haydar Xorazmiy ijodida so‘zga ta’rif berish an’analari.....	209
<b>10. Zuhra Mamadaliyeva.</b> Pandnomalarda bosh qahramon talqini.....	213
<b>11. Tozagul Matyoqubova.</b> Falsafiy-estetik konsepsiya: mushtaraklik va o‘ziga xoslik.....	217
<b>12. Latifa Xudoyqulova.</b> O‘zbek - ozarbayjon adabiy aloqalari haqida....	221
<b>13. Saodat Gayupova.</b> Sifatli ta’lim umummadaniy qadriyat sifatida.....	226
<b>14. Shahlo Hojiyeva.</b> Abdulhamid Cho‘lpon va Husayn Jovid.....	229